



2018 yil yanvar-may oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4 601,7** mlrd.somni, osish **8,1%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati – **104,2 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,7%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **30,7%**

Dastlabki ma`lumotlar bo`yicha 2018 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4601,7 mlrd.so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo`lib, o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan o`shish sur`ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o`shishining asosiy omili bo`lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,5 % ga, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 6,2 % ga, elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondititsiyalashning 3,6 % ga va suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 21,0 % ga o`shishi hisoblanadi.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 144,4 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ni tashkil etdi.

Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi

o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan - 6,2 % ga, tog`kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar - 5,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4153,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,3 % ni tashkil etdi.



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 14,7 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 12,6 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 33,3 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 13,2 %ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 48,8 % ga, mebel ishlab chiqarish 10,6 % ga, oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, komp`yuterlar elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.



Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 282,1 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,6 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,0 % ga oshganligi kuzatildi.




2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1230,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 4,2 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,7 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 34,5% ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,4% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 7,3% ulushini), Marg'ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,8% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,2% ulushini), Dang'ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,5% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,6% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Oltiariq va Farg'ona tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Qo`shtepa, So`x, Uchko`prik, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.


Hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi o`tg`an yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ga o`shishiga erishilda. Hududlar kesimida o`shish sur`atlari quyidagicha Farg`ona shahar 117,2%, Qo`qon shahar 114,5%, Quvasoy shahar 101,0%, Marg`ilon shahar 108,0%, Toshloq tumani 110,8%, Dang`ara tumani 108,1%,

O`zbekiston tumani 107,7%, Quva tumani 108,4%, Buvayda tumani 107,9%, Beshariq tumani 109,4%, Bog`dod tumani 106,0%, Oltiariq tumani 107,5%, Farg`ona tumani 106,9%, Rishton tumani 110,1%, Yozyovon tumani 105,7%, Qo`shtepa tumani 107,5%, So`x tumani 106,6%, Uchko`prik tumani 103,2%, Furqat tumani 109,5% ga, to`g`ri keldi.



Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 170,3 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 169,3 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 43,8 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 107,5 mlrd.so`m, Toshloq tumani 28,9 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 31,5 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 40,7 mlrd.so`m, Quva tumani 51,1 mlrd.so`m, Buvayda tumani 26,4 mlrd.so`m, Beshariq tumani 46,4 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 35,1 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 43,0% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 34,1 mlrd.so`m, Rishton tumani 36,2 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 21,1 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 26,6 mlrd.so`m, So`x tumani 13,6 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 29,2 mlrd.so`m, Furqat tumani 17,5 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100.1 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 30,7 % tashkil etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini.

Bugungi kunda viloyatda 5751 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1135 tasi Qo`qon shahri, 772 tasi Marg`ilon shahri, 746 tasi Farg`ona shahri, 396 tasi Uchko`prik tumani, 356 tasi O`zbekiston tumani, 306 tasi Dang`ara tumani, 267 tasi Buvayda tumani, 221 tasi Toshloq tumani, 210 tasi Quva tumani, 182 tasi Bog`dod tumani, 175 tasi Oltiariq tumani, 161 tasi Qo`shtepa tumani, 151 tasi Rishton tumani, 142 tasi Farg`ona tumani, 136 tasi Quvasoy shahri, 109 tasi Yozyovon tumani, 104 tasi Furqat tumani, 94 tasi Beshariq tumani, 88 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 543 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 84 tasi Qo`qon shahri, 49 tasi Marg`ilon shahri, 68 tasi Farg`ona shahri, 45 tasi Uchko`prik tumani, 35 tasi O`zbekiston tumani, 16 tasi Dang`ara tumani, 45 tasi Buvayda tumani, 22 tasi Toshloq tumani, 25 tasi Quva tumani, 20 tasi Bog`dod tumani, 25 tasi Oltiariq tumani, 9 tasi Qo`shtepa tumani, 19 tasi Rishton tumani, 18 tasi Farg`ona tumani, 12 tasi Quvasoy shahri, 7 tasi Yozyovon tumani, 14 tasi Furqat tumani, 19 tasi Beshariq tumani, 11 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-may oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

F.Yakubov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19